

## Adabiyot O'Qitishda Sharq Allomalarining Metodikasi

*Tursunboyeva Gulsum<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda sharq alloma va mutafakkirlarining ilmiy merosi faqatgina bir xalqning emas balki butun bir jamiyat hamda insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi. Ushbu maqolada sharq allomalarining adabiyot sohasidagi metodik qarashlari, adabiyotga qo'shgan hissasi hamda tadqiq qilgan usullari haqida so'z yuritiladi. Ularning metodik qarashlari bugungi kun nuqtayi nazaridan atroflicha tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** metodika, nazariya, didaktika, ruhiyat, ifodali o'qish, tushinish, mantiq, jamoa.

Adabiyotni o'qitish metodikasi yoki nazariyasi haqaida gap ketganda o'rganish bn bog'liq jarayonlar bundan bir necha ming yillar oldin boshlanib, yaqin yaqinlargacha davom etganligini ko'rishimiz mumkin. Turkiy xalqlar adabiyoti ham asosan V-VII asrlarda shakllanib adabiyotni o'qitish bilan bog'liq namunalar ham shu davrdan rivojlanib bordi. Umuman olganda, badiiy so'zning mohiyatini aniqlash, adabiyotini inson ruhiyatiga ta'sir qila oladigan darajaga yetkazish Sharq xalqlari hayotida doimiy ravishta katta ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega bolib kelgan. Inson kamolotida ta'limgartarbiyaning o'rni beqiyosligi «Qur'oni Karim»da hamda Imom Buxoriyning hadislarida ham alohida ta'kidlab o'tilgan. Shu bilan birqalikda sharq allomalarining didaktik qarashlarida ta'limgartmetodlari masalasiga juda katta e'tibor qaratilgan.

Qomusiy olimlardan Abu Rayhon Beruniy, Farobi , Abu Ali ibn Sino, Dovoniy hamda Navoiy asarlarida ta'limgarttarbiya, xulq-atvor hamda o'qitish masalalari atroflicha bayon etilgan.

Nasr Farobi o'zining "Ilmlarning kelib chiqishi" asarida badiiy asarni ifodali o'qish, o'qiganlari asosida hikoya qilib berish zo'r san'at ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan. Darhaqiqat bugungi kunda adabiyot darslarida berilgan asarlar o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga ifodali tarzda o'qib berilsa yoki darsda o'quvchilarning o'zlari asarni ifodali o'qishsa o'qilgan matnning esda qolarli bo'lshi osonlashadi. Asarning hikoya qilib berilishi esa so'zlovchi nutqining ravon bo'lishiga , mustaqil fikrash qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida o'qitish masalasiga to'xtalib, shaxs ta'limgartida ko'proq qaysi tomonlarga e'tibor qaratish kerak ekanligini ta'kidlaydi. U birinchi o'rinda o'qitishda yodlash emas balki tushinish, mantiqiy fikrash qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qilishi, hamda olni bilimlarini amaliyotda qollay olishiga imkon yaratishi kerakligini aytadi. U "Tadbiri manozil", "Donishnoma" kabi asarlarida didaktik qarashlari bilan birga bolalarga ta'limgart berish haqida ham bir qancha ma'lumotlar beradi. Ya'ni darsda ko'rsatmalilik. Bu jarayonda o'tilayotgan mavzuni o'quvchilar ko'rsatma materiallar orqali yanada aniqroq tushinib, ko'z o'ngida gavdalantira oladi. Shuningdek, ibn

Abu Ali ibn Sino badiiy asarning inson ruhiyatiga ta'siri haqida fikr yuritib g'azal eshitilganda ko'ngil kishilarining ahvoli shodlik yoki kulguga g'amginlik yoki yig'iga moyil bo'lishini ta'kidlaydi.

Abu Ali ibn Sino kishiga qaysi usulda ta'limgart berilmasin, bu usul birinchi o'rinda uning og'zaki nutqini ravon etishi, mustaqil fikrash qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qilishi, hamda olni bilimlarini amaliyotda qollay olishiga imkon yaratishi kerakligini aytadi. U "Tadbiri manozil", "Donishnoma" kabi asarlarida didaktik qarashlari bilan birga bolalarga ta'limgart berish haqida ham bir qancha ma'lumotlar beradi. Ya'ni darsda ko'rsatmalilik. Bu jarayonda o'tilayotgan mavzuni o'quvchilar ko'rsatma materiallar orqali yanada aniqroq tushinib, ko'z o'ngida gavdalantira oladi. Shuningdek, ibn

<sup>1</sup> O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti



Sino bilim berishda bolaning yoshiga e'tibor qaratish lozimligini, ta'lim jarayonida "yengildan qiyinga" o'tish kerakligini hamda dars mashg'ulotlarini jamoavyi tarzda olib borish kerakligini ham aytib o'tgan.

Davoniy ham o'z asarlarida maktab tushunchasiga jiddiy e'tibor qaratadi. Kishi kamolotida maktabning o'rni muhimligini ta'kidlaydi. Ota-Ona farzandning jismoniy rovojlanishiga sababchi bo'lsa, muallim ma'naviy, ruhiy rivojlanishiga yo'l ko'rsatishini aytadi. Uning fikricha, muallim talabaning nima bilan shug'ullanishiga, qaysi kasbga qiziqishiga jiddiy etibor berishi kerak. Shundagina uni to'g'ri yo'lga boshlay oladi.

Shu o'rinda yuqoridagi fikrlarga nazar tashlar ekanmiz bundan bir necha ming yillar avvalgi ta'lim, o'qitish va tarbiyaga oid qarashlar hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan aksincha, bugungi ta'lim jarayonimizning ham qimmatli manbaalari qatoridadir. Bugungi kun o'quvchilariga nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirishda metodik manbaa bo'lib xizmat qilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Adabiyot o'qitish metodikasi / o'quv qo'llanma: Q. Husanboyeva, R. Niyoz-metova.: 2018-yil. - 352 bet.
2. B.X.XODJAYEV Umumi pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 154-157
3. Aliqulov X. Jaloliddin Dovoni.-TOSHKENT: "O'zbekiston ", 1992. 20-b.
4. Muxiddin o'g'li, B. Q., & Ozod O'g'li, X. B. (2022). QON-CHO 'PO 'SIMLIGINING TAVSIFI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI, 267-270.
5. Shyarishv A. Abu Rayhon Beruniy. -T.: Fan, 1999. 114-b.

